

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**TASHKENBAYEV Po'lat Irkinovich**

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi*

*dotsenti, san'atshunoslik fanlari nomzodi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13822544>

## BALET VA RAQS SAN'ATSHUNOSLIK NIGOHIDA

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jahon xoreografiya san'ati – klassik raqs, xalq-sahna raqsi, zamonaviy raqsning shakllanishi va rivojlanish yo'llari, balet va raqs sahnasining atoqli namoyndalarining ijodiy merosiga oid ilmiy adabiyotlar, klassik xoreografiya an'analarini asrab avaylash masalalari haqida umumiy ma'lumot berilgan. Muallif qadim zamonlardan XXI asr boshlarigacha xoreografiya san'ati nazariyasi va tarixiga oid masalalarni yoritgan, baletmeysterlarning ijodiy izlanishlarini o'rgangan, xoreografiya san'atining badiiy-estetik xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etgan.

**Kalit so'zlar:** milliy madaniyat, klassik raqs, xoreografik obraz, baletmeyster, spektakl, monografiya, janr, ifodaviylik, badiiylik, mahorat.

## БАЛЕТ И ТАНЕЦ В АСПЕКТЕ ИСКУССТВОВЕДЕНИЯ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье даётся обзор научной литературы о формировании и путях развития мирового хореографического искусства – классического, народно-сценического, современного танца, о творческом наследии выдающихся мастеров балетной и танцевальной сцены, о сохранении традиций преемственности в классической хореографии. Автор освещает вопросы теории и истории искусства хореографии с древнейших времён до начала XXI века, исследует творческие поиски балетмейстеров, изучает художественно-эстетические особенности и тенденции развития хореографического искусства.

**Ключевые слова:** национальная культура, классический танец, хореографический образ, балетмейстер, спектакль, монография, жанр, выразительность, образность, мастерство.

## BALLET AND DANCE IN THE ASPECT OF ART CRITICISM

### ANNOTATION

This article provides an overview of scientific literature on the formation and development of world choreographic art - classical, folk-stage, modern dance, on the creative heritage of outstanding masters of the ballet and dance scene, on the preservation of the traditions of continuity in classical choreography. The author covers issues of the theory and history of the art of choreography from ancient times to the beginning of the 21st century, explores the creative searches of choreographers, studies the artistic and aesthetic features and trends in the development of choreographic art.

**Key words:** national culture, classical dance, choreographic image, choreographer, performance, monograph, genre, expressiveness, imagery, skill.

Baletshunoslik fani san'atshunoslikning tarkibiy qismi bo'lib, balet va raqs san'ati nazariyasi, uning tarixi xamda badiiy tanqid kabi turlarni o'z ichiga qamrab oladi. Mazkur tadqiqot turlari o'zaro uzviy aloqada bo'lib, shu bilan birga, har biri o'zining maxsus vazifasiga ega.

Balet nazariyasi xoreografiya san'atiga nisbatan g'oyaviy mazmun, badiiy shakl, uslub, ifoda vositalari, balet va raqsning tur va janrlariga xos maxsus xususiyatlarini o'rganadi. Shuningdek, umumiy qonuniyatlarini, san'at taraqqiyotining obyektiv mantig'i, uning jamiyat bilan munosabati, jamiyat va shaxsga nisbatan ta'sirini ko'rib chiqadi.

Balet tarixi esa balet va raqs san'atning umumiy taraqqiyotini biror mamlakatda yoki alohida davrda o'rganadi va tadqiq qiladi, xoreografiya san'atining biror tur yoki janri, oqimi, yo'nalishi rivojini, mazkur san'at sohasiga salmoqli hissa qo'shgan san'atkorning ijodiy uslubini tahlil qiladi.

Balet tanqidchiligi xoreografiya san'atidagi zamonaviy jarayonlarni tahlil qiladi, uning yo'nalishi, tur va janrlarini, balet va raqs san'ati ustalarining ijodi va ularning alohida badiiy asarlarini tahlil qiladi va baholaydi. Shular asosida san'atshunoslikning asosiy sohalari va adabiy janrlari belgilanadi. Nazariy risola, darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma, nazariy va tarixiy, umumiy va maxsus (monografiya) tadqiqotlar, sharxlar, maqola va nutqlar, tanqidiy umumlashmalar va qiyosiy tahlillar shular jumlasiga kiradi. Bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, raqs san'atining badiiy xususiyatlarini anglash antik davrdan boshlangan. Aristotelning "Poetika" asarida antik drama va teatrning ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan bo'lsa, qadimgi yunon yozuvchisi Lukianning (120 – 180) "Raqs haqida" nomli risolasida raqs san'atining jamiyatdagi o'rni aniqlanadi.

Yozuvchi va faylasuf orasidagi dialog shaklida yozilgan risolada raqsning qadimiy ildizlari va dunyo bo'ylab keng tarqalganligi, raqs ijrochisi bilishi kerak bo'lgan mifologik va tarixiy syujetlar, raqqosning maqsadi, vazifikasi va intilishlari haqida chuqur mulohazalar berilgan. Shuningdek, raqsning antik teatrtdagi tragediya va komediya janrlari bilan o'xhashli va farqli tomonlari taqqoslanib, tahlil qilingan.

Xozirgi ko'rinishdagi Yevropa balet san'atining paydo bo'lishi O'yg'onish davrida saroy bal raqlarining keng rivojlanishi bilan bog'lanadi. Bu davrda Italiya va Fransiyada G. Ebreo, F. Karozo, T. Arbo, CH. Negri kabi bal raqlari bo'yicha xoreograflar va o'qituvchilar tomonidan darsliklar va raqs haqida risolalar yaratildi [7, B.85].

XV - XVI asrlar teatrlashtirilgan raqlarning shakllanish jarayoni avval Italiyada, so'ng Fransiyada va Yevropaning boshqa mamlakatlarida balet san'atining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. 1581 yilda kompozitsion jixatdan shakllangan, mazmunli muzika, raqs, pantomima, so'z va ashula vositalari orqali ifodalangan "Qirolichaning hajviy baleti" nomli birinchi balet spektakli yaratildi. 1661 yilda Parijda Lyudovik XIV tomonidan tashkil qilingan "Qirollik raqs akademiyasi" baletning professional san'atga aylanishida katta rol o'ynadi [6, B.139].

XVII asrdagi fransuz raqsi sohasida olib borilgan izlanishlar K. F. Menetriye va R. O. Fyoye tadqiqotlarida atroflicha tahlil qilingan.

XVIII asrda balet estetikasi qonun – qoidalari va tamoyillari shakllanishi boshlandi. Bu jarayon mashxur raqs ustasi, baletmeyster, balet islohotchisi, zamonaviy balet san'ati asoschisi Jan-Jorj Noverrning ijodiy faoliyati bilan bog'liq. U 1760 yilda yaratgan "Raqs va baletlar haqida xatlar" nomli kitobi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1787 yilda S.Kompana tomonidan birinchi marotaba raqs san'ati tarixi, qoidalari va asoslarini qamrab olgan "Raqs lug'ati" nashrdan chiqarildi. XIX asr boshida maxsus balet lug'atini yaratish bo'yicha J.-J.Noverr ham muhim ish boshlagan eli, lekin, afsuski, uni ohirigacha yetkazishga ulgurmadi [5].

Romantizm davri baleti nazariyasi va amaliyoti bir qator manbalarda o'z aksini topgan. Xususan, Sh.L.Didloning o'z baletlariga yozgan muqaddimalarida, K.Ritornining "S.Vigano hayoti va xoreografik asarlariga izoh" nomli kitobida (1838), F.Kastil-Blaza tadqiqotlarida, tanqidchi T.Gotye maqolalarida, A.Burnonvil esdaliklarida romantik baletning badiiy – estetik xususiyatlari tahlil qilingan. K.Blaoris birinchi bo'lib balet texnikasini tizimladi, A.Sen-Leon esa balet notatsiyasini o'ziga hos tizimini ishlab chiqdi.

Rossiyada balet spektakllari haqidagi dastlabki habarlar XVIII asrning 2-chi yarimida chop etildi. Rus baleti o‘zining shakllanish va rivojlanish jarayonida G‘arbiy Evropa professional xoreografiyasi yutuqlarini o‘zlashtirish davrini bosib o‘tishi zarurligi singari, Rossiyadagi badiiy-nazariy tafakkur, xususan, balet tanqidchiligi,, o‘z navbatida, jahonning o‘sha davrdagi badiiy-estetik g‘oyalarini anglashi kerak bo‘lgan. Bu jarayon XVIII asrning ohiri – XIX asrning boshida boshlangan [1, B.142-145].

1779 - yilda “Sankt-Peterburg darakchisi” gazetasida Y.Shtelinning “Rossiyada avvaldan 1768 - yilgacha namoyish etilgan teatr tomoshalari haqida qisqacha ma’lumot” nomli maqola chop etildi. Bu erda muallif rus milliy raqsining o‘ziga xos xususiyatlariga to‘htalib, fransuz va italyan professional balet maktablarini rus raqsi an’analari bilan uyg‘unlashganligiga alohida e’tibor qaratadi.

Fransuz baleti tadqiqotchisi L.Kayuzak hamda baletmeyster va nazariyotchi J.J.Noverrning asarlari 1790 - yilda Rossiyada nashr etilgan “Raqs lug‘ati” asosini tashkil etdi va uning muqaddimasida uchta bosh mavzu aytib o‘tildi – mexanika, Yani raqs bayoni, poetika va raqs tarixi. 1803-1804 - yillarda Peterburgda XVIII asr xoreografiya nazariyasiga bag‘ishlangan mumtoz tadqiqot – J.J.Noverrning “Raqs haqidagi xatlar”i nashr etildi. 1806 - yilda bosmadan chiqgan “Yangi so‘z lug‘ati”da raqs san’ati xususiyatlari haqida batafsil ma’lumot berilgan va xoreografik tasvir ob’ekti sifatida insonning hiss-tuyg‘ulari ko‘rsatilgan.

Adib va tarixchi A.I.Turgenevning “Vestnik Evropi” jurnalida chop etilgan maqolalarda (“O‘yin va raqs haqida”, “Raqs san’ati haqida”, 1810; “Balet haqida”, 1811) raqsning boshqa san’at turlari orasida tutgan o‘rni, uning ijtimoiy vazifalari belgilangan. Muallif fikricha, balet san’ati ikkita asosiy toifaga – “sof”, Yani, syujetsiz balet va syujetli, harakatli baletga bo‘linadi.

XIX asrning birinchi choragida, Rossiyada professional raqs maktabi shakllanishi dastlabki davrida, balet san’ati rus madaniyatining etakchi namoyandalari, xususan, G.R.Derjavin, A.S.Pushkin, A.S.Griboedov, D.N.Davidov kabilar e’tiborini o‘ziga jalb etdi. P.A.Vyazemskiyning rus baleti tarixi uchun qimmatli bo‘lgan taassurotlarida o‘sha davrdagi raqs san’ati ustalari – SH.Didlo, A.I.Istomina, E.A.Telesheva, T.I.Glushkovskayaning ijrochilik mahorati aks etgan [1, B.177-178].

1830 - yillarda joriy repertuardagi muayan xoreografik asarlarni o‘rganishga kirishildi. Bu yillarda «Severnaya pchela», «Molva», «Galateya», «Xudojestvennaya gazeta», «Moskovskie vedomosti», «Moskovskiy nablyudatel», «Moskovskiy telegraf» gazetalarida chop etilgan maqolalarning aksariyatida spektakllar mazmuni bayon etilgan, ijrochilar mahoratiga baho berilgan. Faqatgina ayrim hollarda mualliflar rus xoreografiyasi rivojlanishining umumiyligi tendensiyalarini yoritishgan, baletmeysterlik san’atini tahlil etishgan. Gohida taqrizlarda balet spektaklining tarkibiy qismlari, Yani, sahna bezagi, xoreografiyasi, muzikasini tahlil qilishga, xarakterli raqs va mumtoz raqs orasidagi farqni, raqs va muzikaning o‘zaro munosabatini aniqlashga, balet obrazlarini aktyorlik talqiniga baho berishga qo‘l urilgan.

Balet teatri haqidagi ko‘plab taqrizlar orasida V.M.Stroev va M.A.Yakovlevlarning maqolalari alohida ajralib turgan. M.A.Yakovlev retsenziyalarida balet san’atining zamonaviy tahlili balet tarixidan olingan ma’lumotlar bilan o‘zviy bog‘langan.

Baletshunoslik shakllanishing muhim bosqichlaridan biri xoreografiyada romantik uslub vujudga kelishi bilan va J.Perro, M.Taloni, F.Elsler kabi mashhur balet ustalarining 1830-1850 - yillarda Rossiyadagi gastrollari bilan bog‘liq bo‘lgan.

Avval noma’lum bo‘lgan balet spektakllardagi raqs shakllarining nooddiyligida rus tanqidchiligi romantizm muhitini va bu orqali xoreografiya xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan. Balet tanqidchiligi, asosan, “Severnaya pchela” gazetasida mujassamlangan bo‘lgan. Uning sahifalarida G‘arbiy Evropa sahnalarida vujudga kelayotgan yangi raqs texnikasiga katta e’tibor berilgan. Ba’zida, xoreografiya san’atiga nisbatan nazariy-estetik yondoshuv namoyon bo‘lgan. Misol tariqasida, R.M.Zotov, F.A.Koni, V.R.Zotov maqolalarini keltirish mumkin.

«Panteon russkogo i vsex evropeyskix teatrov», «Sovremennik», «Moskovskie vedomosti» kabi gazetalarda SH.Didlo va F.Taloni romantizmi orasidagi tafovut masalalari, balet spektaklning janr xususiyatlari masalalari ko‘tarilgan.

1860 - yillarda xoreografiya muammolari teatr tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ko‘tarilgan (P.N.Arapovning “Rus teatri solnomasi”, 1861; A.I.Volfning “Peterburg teatrlari xronikasi”, 1-3 qism, 1877-1884).

Memuar adabiyoti namunalari sifatida 1856 - yilda “Moskvityanin” jurnalida chop etilgan A.P.Glushkovskiyning SH.Didlo haqidagi esdaliklarini, hamda S.T.Aksakov va S.P.Jixarevning esdaliklarini keltirish mumkin. Balet taqrizchilari orasida I.P.Bocharov va A.N.Bajenov nomlari keng tanilgan.

XIX asrning oxiri – XX asr boshida Rossiyada balet teatri bo‘yicha dastlabki yirik tadqiqotlar taqdim etildi. K.A.Skalkovskiyning “Balet, uning tarixi va nafis san’atlar qatoridagi o‘rni” (1882), A.A.Pleshcheevning “Bizning balet”(1896), S.N.Xudekovning 4 jildlik “Raqslar tarixi” (1913-1918) kabi tadqiqotlarda xoreografiya tarixini tizimlash tajribasi amalga oshirilgan. V.Y.Svetlovning “Terpsixora” (1906) va “Zamonaviy balet” (1911) nomli kitoblarida XX asr boshidagi raqs sohasidagi islohotlar, A.Dunkan, A.A.Gorskiy, M.M.Fokin ijodi atrofida olib borilgan bahslar yoritib berilgan. Balet sohasi estetikaning turlicha, ayrim xollarda bir biriga qarama-qarshi nuqtai nazar tarafdorlari bo‘lgan madaniyat arboblari va san’atkorlar e’tiborini o‘ziga jalg etdi.

1910 – yillardan boshlab, matbuotda muzika tanqidchisi B.V.Asafevning maqlolalari chiga boshladи. V.V.Stasov, A.N.Serov, “San’at olami” (“Mir iskusstva”) g‘oyalari ta’siri ostida, B.Asafev balet muzikasi muammolarini, xususan, simfonizm tamoyillarini, raqs simfonizatsiyasini balet estetikasi doirasiga kiritishga xarakat qilgan. Bu muammo uning 1922 - yilda bosmadan chiqgan “Rus operasi va baleti haqida xatlar” nomli maqlolalar to‘plamida atroficha yoritilgan. B.Asafev balet spektakllari muzika madaniyatini oshirilishiga, xoreografik asar tahlili metodologiyasi asoslanishiga, uning g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlagan va rivojlantirgan,

F.V.Lopuxov va Y.I.Slonimskiy kabi xoreografiya nazariyachilarini va amaliyotchilarining qarashlari baletshunoslik shakllanishiga salmoqli hissa qo‘shdi. 1960 - yillar boshida bunday qarashlar baletshunoslarning yangi avlodini rivojlanishiga tayanch bo‘ldi.

1910-1920 yillarda balet tanqidchiligi teatr va muzika tanqidchiligidan ajralib, san’atshunoslikning mustaqil sohasi sifatida shakllandı va milliy baletshunoslik maktablari vujudga keldi.

Masalan, Fransiyada balet haqidagi fanni rivojlanishida Parijga ko‘chib kelgan rus baletshunosi A.Y.Levinson muhim hissa qo‘shgan [4, B. 216].

A.Y.Levinson o‘zining “Balet ustalari” (1914) va “Eski va yangi balet” (1917) nomli tadqiqotlarida zamondoshlari orasida birinchi bo‘lib, xoreografiya san’ati tahlilining yangi uslublarini qo‘llagan, san’atshunoslik sohasida foydalaniladigan umumestetik atamalarni baletshunoslik faniga olib kirgan, XX asr boshidagi rus falsafiy fikrga asoslanib, raqs nazariyasi va tarixini ishlab chiqgan, balet adabiyotining turli janrlarida ijod qilgan.

A.Y.Levinson raqs nazariyasini raqs tarixi bilan bog‘liq holda o‘rgangan, xoreografiyaning xususiyatidan kelib chiqgan holda, muayan xarakterlar va real voqealarni raqs san’atining badiiy ifoda vositalari orqali tasvirlash huquqini inkor etgan. Shuningdek, u raqs estetikasini simvolizm estetikasi bilan bog‘lagan, uning fikricha - balet emotSIONAL taassurotni namoyon etib, sahnada yangi borliqni xoreografiyaning oliy shakli – mumtoz raqsda yaratadi.

Keyinchalik, Parijda 1920-chi yillarda romantik balet haqida yozilgan tadqiqotlarda Levinson rus baletshunosligi tomonidan tadbiq etilgan baletning estetik tahlili tamoyillarini keng tarqalishiga sababchi bo‘lgan. Rossianing o‘zida Levinson g‘oyalaringin ta’siri 1920-chi yillar o‘rtalarida uzilgan va 1950-chi yillar ohiri – 1960-chi yillar boshida, tanqidchilar xoreografik obrazlarda insonnинг “xayajonli hiss-tuyg‘ular olami” gavdalanishi haqida yoza boshlashganda, mazkur g‘oyalarni qaytadan tiklangan. A.Y.Levinson ishini fransuz mualliflardan P.Tugal va P.Misho davom ettirishdi.

Buyuk Britaniyada dastlabki tadqiqotlar S.U.Bomont va A.Xaskell qalamiga mansub bo‘lgan. AQShda tanqidchilardan Dj.Martin va va E.Denbi, balet tarixchisi L.Mur mashhur bo‘lishgan.

1910 yillardan boshlab, baletshunoslik rivojlanishiga erkin raqs vakillaridan Aysedora Dunkan, so‘ng – nemis nazariyachisi va amaliyotchisi R. fon Laban, 1930 yillarda – amerikalik amaliyotchi va tanqidchi D.Xamfri salmoqli hissa qo‘sishdi.

XX asrning 2-chi yarmida AQShda va Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida o‘zining balet va raqs tadqiqotchilar bo‘lgan, balet jurnallari tashkil etilgan, gazeta tahririyatlarida balet haqida muntazam ravishda maqolalar yozadigan tanqidchilar ijod qilishgan.

XX asr oxiri – XXI asr boshida jaxon baletshunosligi fanida Rossiya, AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya baletshunoslik maktablari jaxonda yetakchi o‘rinni egallab kelishmoqda. Tadqiqotlarning asosiy mavzulari o‘zining keng qamrovligi bilan ko‘zga tashlanadi. Mazkur ilmiy izlanishlar XVII –XIX asrlardagi Fransiya baleti; S.P.Dyagilev antreprizasi faoliyati, uning davridagi artist va baletmeysterlar ijodi; XX asr Fransiya va Angliya baleti; AQSH baleti va raqsi namoyandalari ijodi, ayniqsa, Amerika baleti va zamonaviy neoklassik baletiga asos solgan xoreograf Djordj Balanchin faoliyati, Sharq va G‘arb raqs madaniyatlarining o‘zaro aloqalari va o‘zaro ta’siri kabi mavzularga bag‘ishlanadi.

AQShda va Yevropa mamlakatlaridagi S. Dj. Koen, U. Terri, D. Makdona, D. Voan kabi tadqiqotchilar chop etgan monografiyalarning aksariyat qismi amerikancha “modern” raqsiga, S. Beynsning ilmiy izlanishlari “postmodern” raqsiga bag‘ishlangan. S. Lifar, M. Bejar, A. De Mill kabi mashhur baletmeysterlar o‘zлari ham bir qator nazariy tadqiqotlarga mualliflik qilishgan.

Balet va raqs sohasidagi nashrlar orasida lug‘at va spravochniklar alohida guruhni tashkil etadi. 1998 yilda AQShda 6 jiddlik “Xalqaro raqs ensiklopediyasi”, 1993 yilda Buyuk Britaniyada 2 jiddlik “Xalqaro balet lug‘ati”, 1998 yilda – “Xalqaro modern raqsi lug‘ati” nashr etildi. Shuningdek, Oksfordda 1982 yilda va 2000 yilda “Raqs lug‘atlari”, Fransiyada 1999 yilda “Raqs” lug‘ati chop etildi.

Raqs san’ati sohasida tadqiqotlarni olib borilishida XX asrning o‘rtalarida tashkil etilgan ihtisoslashtirilgan kutubxonalar, muzeylar, markazlar katta rol o‘ynadi. Ular orasida – Stokgolmdagi “Raqs muzeyi”, Nyu-Yorkdagi “Raqs kolleksiyasi” nomli kutubxona-muzey, Kyoln va Leypsigdagagi “Raqs arxivlari”, Parijdagi “Raqs sinematikasi” kinomarkazi jahon xoreografiya san’atini targ‘ibot qilishda samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Shunday qilib, mashhur baletmeysterlar va raqs ustalari ijodi, jahon xoreografiya san’ati nazariyasi va tarixi turli tarixiy davrlarda, turli mamlakatlarda san’atshunos olimlarning e’tiborini o‘ziga jalb etib kelgan. Raqs va balet san’ati sohasining o‘tmishi va bugungi kundagi ijodiy jarayonlarini ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish san’atshunoslilik fanining dolzarb masalalaridan biridir.

**ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES**

1. Бахрушин Ю. История русского балета. - М.: “Искусство”, 1965. – 276 стр. – URL: <https://artfolk.ge/media/1001614/>
2. Вашкевич Н.Н. История хореографии всех веков и народов. - М.: “Планета музыки”, 2009. – 192 стр. – URL: <https://e.lanbook.com/book/317894>
3. Красовская В.М. Западноевропейский балетный театр. В 5-ти томах. - Л.: “Искусство”, 1979 – 1996.
4. Красовская В.М. История русского балета. - Л.: “Планета музыки”, 2010. – 288 стр. – URL: <https://www.litres.ru/book/v-m-krasovskaya/65881630/>
5. Новерр Ж.Ж. Письма о танце и балетах. - Л.: “Искусство”, 1965. – 384 стр. – URL: <https://lanbook.com/catalog/pisma-o-tantse-73279574/>
6. Слонимский Ю. В честь танца. - М.: “Искусство”, 1968. – 320 стр.
7. Худеков С.Н. Всеобщая история танца. - М.: “Искусство”, 2010. – 608 стр.